

INGLIZ TILIGA ARAB TILIDAN KIRIB KELGAN
SO‘ZLAR VA ULARNING TARIXI
ADCHTI

*Ingliz filologiyasi,
o‘qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti
103-guruh talabasi Odiljonova
M.R.
Ilmiy maslahatchi: Abdullayev
S.Sh.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidan ingliz tiliga so‘zlarning kirib kelishi yoritilgan bo‘lib, so‘zlar va atamalarning to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki boshqa tillar orqali o‘zlashishi, bu jarayonga sabab bo‘lgan tarixiy jarayonlar hamda arabcha so‘zlarning ingliz tiliga kirib kelishida kuzatilgan o‘zgarishlar borasidagi ilmiy qarashlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *til, o‘zlashma so‘z, ingliz tili, arab tili, islom, lug‘at, morfologik o‘zgarish, fonologik o‘zgarish, inversiya.*

Аннотация: В данной статье рассматривается заимствование слов из арабского языка в английский, освещаются прямое или косвенное заимствование слов и терминов через другие языки, исторические процессы, которые способствовали этому явлению, а также научные взгляды на изменения, наблюдаемые в арабских словах при их вхождении в английский язык.

Ключевые слова: *язык, заимствованные слова, английский язык, арабский язык, ислам, лексика, орфологические изменения, фонологические изменения, инверсия.*

Annotation: This article discusses the incorporation of words from Arabic into English, highlighting the direct or indirect adoption of words and terms through other

languages, the historical processes that contributed to this phenomenon, and the scientific perspectives on the changes observed in Arabic words as they entered the English language

Keywords: *language, loanwords, English, Arabic, Islam, lexicon, morphological changes, phonological changes, inversion.*

Dunyo bo'ylab 7000 dan ortiq til mavjud bo'lib, ulardagi so'zlarning ham bir-biriga o'tishi, ya'ni bir tilda mavjud bo'lgan so'zlarning boshqa tilda o'zlashtirilishi kuzatiladi. Tilshunos olim Otto Yespersen: "O'zlashma so'zlardan holi biror til yo'q", deya ta'kidlaganidan ham asrlar osha davom etib kelayotgan bu jarayon dunyodagi barcha tillar uchun xos ekanligini ko'rish mumkin. Osiyo va Afrika mamlakatlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy aloqalari rivojlanishi hamda ilm-fan va madaniyatlar to'qnashuvi natijasida ingliz tiliga ham bir qancha so'zlar, xususan, arabiy so'zlar o'zlashgan. Bu so'zlarning ayrimlari ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri o'zlashgan bo'lsa, ayrimlari esa boshqa tillar orqali kirib kelib, lug'atni boyitgan. Arab tilidan ingliz tiliga o'zlashgan so'zlar 170 tashkil qilib, ulardan 50 tasi to'g'ridan to'g'ri o'zlashgan bo'lsa, 120 ga yaqini boshqa tillar orqali kirib kelgan.¹

Ma'lumki, VIII asrda arablar Ispaniyani o'z ta'sir doirasiga kiritadi va bu yerga o'z madaniyatini—islom madaniyatini ham olib keladi. Shu tariqa XV asrgacha hukm surgan Andalusiya davlatida arab tili ispan tiliga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ilm-fanni rivojlantirish jarayonida mashhur olim va ulamolarning asarlarini yevropa tillariga tarjima qilish asnosida bir talay so'zlar o'zlashtirildi.

Azimuth السموت as-sumut yo'nalish, azimuth. O'rta asrlarda asntonomiyada usturlobdan foydalanishda qo'llanilgan. XII asrda lotin tilida, XIII asrda ispan tilida qo'llanilgan. Ilk bor ingliz tilida 1390- yil nashr qilingan "astrolbiya to'g'risida risola" asarida tavsiflangan.

¹ Qodirov D., Mavlonova O'. Arab tilidan ingliz tiliga o'tgan atamalar. - Buxoro, 2019.

Zero صفر sifr, nol. Dastlab lotin, keyinchalik italyan, fransuz tillarida, 1604-yildan ingliz tilida qoʻllanilgan.

Gibraltar jabali at-toriq. “Toriq togʻi” iborasining buzilgan shakli. 711-yil Toriq ibn Ziyod Shimoliy Afrikani Yevropadan ajratib turuvchi boʻgʻozni kesib oʻtgach, bu yerga uning nomi berilgan.

Islom olamida tibbiyot oʻrta asrlarda yuqori darajada rivojlangan. Fanlar qatori Yevropa xalqlari sharqdan tib ilmlarini oʻzlashtirishi, bu borada qator kitoblarning tarjima qilinishi natijasida bu sohaga doir soʻzlar ham oʻzlashtirildi.

Syrup, شراب. Dori ichishni osonlashtirish uchun uni shirinliklar qoʻshilgan va suyuq holda tayyorlashni ilk bor musulmonlar qoʻllaganlar va uni sharob deyishgan. Gʻarbda esa bu nom biroz oʻzgarib, sirop deyilgan.²

Saphene (saphenous vein) صافن, teri osti qon-tomiri. Oʻrta asrlarda flebotomiyada, yaʼni davolashda qon oqiziladigan tomirlardan sanalgan.

Mummy موميا – mumiya, mumiyo. Tibbiyotda va balzamlashda qoʻllanilgan. Boshqa bir maʼnoda mumiyolangan jasadni anglatgan.

Tabiat va nabobot ilmi ham sharq olamida rivojlanganligi va gʻarb mamlakat xalqlari buni keyinchalik aynan sharqdan oʻzlashtirganligi ayrim oʻsimliklar nomlari ham arab tilidan ingliz tiliga oʻzlashganining guvohi boʻlamiz.


Orange نارنج, naranj, apelsin. Bu soʻz fors tilidagi naranj soʻzidan olingan deb taxmin qilinadi. Apelsin daraxtini arablar Hindistondan keltirishgan va X asr boshlarida Oрта Yer dengizi boʻylab yetishtirishgan. XII asr boshlarida lotin tilidagi shklidan “n” tovushi tushib qolib, *arancia* soʻzi paydo boʻlgan va ingliz tiliga orange shaklida oʻtgan.

Jasmine ياسمين Yasmin. Oʻrta asrlarda Arabistonda yetishtirilgan gul turi.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. - Toshkent, 2019.


Yuqorida ta’kidlanganiday, ingliz tiliga arabiy soʻzlar boshqa yevropa tillari orqali kirib kelgan. Bu jarayon davomida soʻzlar tarkibida oʻzgarishlar roʻy berganini koʻrishimiz mumkin.

Alchemy, chemistry الكيمياء. Gʻarbda “oltin va kumushga sunʼiy ravishda aylantiriladigan moddalar borasidagi tadqiqotlar” degan maʼnoni anglatgan. Bu soʻz fransuz va lotin tillari orqali ingliz tiliga oʻzlashganini quyida koʻrishimiz mumkin³:




Massage, massaj. Bu amaliyot sharqda keng tarqalgan. Ingliz tiliga oʻzlashtirilishi borasida ikki xil qarash mavjud boʻlib, birinchisiga koʻra, arab tili orqali, yana bir qarashga koʻra esa portugal tili orqali fransuz tilidan kirib kelgan. Bu soʻz arab tilidagi مَس-*mass*– “tegmoq, ushlamoq” soʻzidan oʻtganligi aytiladi.

Apricot البرقوق *al-barqūq*) Bu soʻz lotincha “*praecoqua*”, yaʼni “erta pishar”




degan maʼnoni anglatgan. Ispan tiliga oʻrta asrlarda *albarcoqu* tarzida oʻzlashgan. Ispan yoki Portugal tilidan fransuz tiliga va u orqali inglizchaga kirib kelgan. Ingliz tilida ilgari *abrecok*, *abrecox*, *apricock* deb yozilgan.

³ Eremin A.S, Arabic Borrowings in the Lexical-Semantic System of the English Language: Etymological Analysis, RESEARCH RESULT. THEORETICAL AND APPLIED LINGUISTICS, 2020.



Lemon, ليمون limun, limon; **lime**, ليم laym. O'rta Yer dengizi bo'yida arabalar limon, laym yetishtirgan. Grek va rimliklar bu mevalarni yetishtirmas edi. XII asr oxirida Ibn al-Avvom Andalusiyada yetishtiriladigan mevalarning 10 ta turini



ajratgan⁴. Ingliz tiliga fransuz tili orqali kirib kelgan.

O'zlashma so'zlar borasida ilmiy ishlar olib borilib, bir qancha asarlar yaratilgan. Tadqiqotlar natijasida o'zlashma so'zlar ilmiy asosda ko'rsatilgan. Ana shulardan biri Sulaymon Abu G'avshning "Ten Thousand English Loanwords of Arabic Origin" asari hisoblanadi. Mazkur risolada olim arab tilidan olingan so'zlarni aniqlash uchun morfologik va fonologik o'zgarishlarni turli so'zlar misolida o'rganadi.⁵

Unli tovushlarni tushirish. Arab tilida unli tovushlar mavjud emasligini hisobga olgan holda ingliz tilidagi ayrim so'zlardagi unlilar tushirilsa, undoshlar mazkur so'zning arabiy muqobili bilan bir xil ekanligini ko'rish mumkin.

⁴ Qodirov D., Mavlonova O'. Arab tilidan ingliz tiliga o'tgan atamalar. - Buxoro, 2019

⁵ Mohamed A. Yacoub, Do Ten Thousand Arabic Loanwords Truly Exist In English? International Journal of Interdisciplinary Research and Innovations, 2015.

Solid- (sld)	دلس (sld)	Inglizcha soʻzdagi unli harflarni olib tashlaganidan soʻng, u arab tilidagi talaffuz va bir xil maʼnoni beradi.
Ill (ill)	ليلع لع (ill)	Bu yerda "i" oddiy unli harf emas, balki arab tilidan boshqa tilda mavjud boʻlmagan arabcha ع harfining oʻrnida turadi

Inversiya. Arab tilida soʻzlar oʻngdan chapga, ingliz tilida esa, aksincha, chapdan oʻngga qarab oʻqiladi va yoziladi. Shu bois ayrim soʻzlarning teskari oʻqilishi natijasida oʻzlashganining guvohi boʻlamiz.

Shark (Krsh)	شرق
Led (dal)	لد
Serene (rseen)	نيسر

Oʻrin almashtirish. Ingliz tilida mavjud boʻlmagan yoki talaffuz qilish qiyin boʻlgan arabcha tovushlar boshqa tovushga almashtirilgan.

Cable	soʻziga ح tovushi ingliz tilida yoʻq
Earth	soʻzidagi ض tovushi ingliz tilida yoʻq

Qoʻshish yoki tushirib qoldirish. Soʻzlarga tovushlar qoʻshiladi yoki ayrim tovushlar tushib qoldiriladi. Bunda vaqt oʻtishi bilan baʼzi soʻzlarda oʻzgarishlar boʻlishi ham hisobga olinadi.⁶

Blame	soʻziga "b" tovushi qoʻshilgan
Antique	soʻziga "n" tovushi qoʻshilgan
Assert	soʻziga "t" tovushi qoʻshilgan

⁶ Mohamed A. Yacoub, Do Ten Thousand Arabic Loanwords Truly Exist In English? International Journal of Interdisciplinary Research and Innovations, 2015.

Eye	so‘ziga “n” tovushi qo‘shilgan نىع
-----	------------------------------------

VIII asrda arablarning G‘arbiy Yevropa mamalakatlarini fath etishlari hamda bu yerga islom madaniyatini olib kirishlari Yevropa xalqlari tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu holat madaniyat, ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar, o‘zlashtirilgan bilimlar orqali yorqin namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga xalqaro siyosiy va savdo aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi va olib borilishi natijasida ingliz tiliga arab tilidagi so‘zlar o‘zlashdi. Mazkur so‘zlarning ayrimlari to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirilgan bo‘lsa, ayrimlari esa lotin, fransuz va ispan tillari orqali ingliz tili lug‘atining boyishiga xizmat qildi. Shu bilan birga o‘zlashma so‘zlar borasida tadqiqotlar olib borilib, yuz bergan o‘zgarishlar olimlar tomonidan o‘rganildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jahon xalqlarining o‘zaro aloqalari jarayonida tillarga yangi so‘zlar kirib kelishi ularning lug‘at boyligi oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Olam va odam, din va ilm”. Toshkent, 2019.
2. D.Qodirov, O‘.Mavlonova. “Arab tilidan ingliz tiliga o‘tgan atamalar”. Buxoro, 2019.
3. Hosam M.Darwish. “Arabic loan words in English language”. IOSR journal of humanities and social science. July, 2015.
4. Mohamed A. Yacoub, Do Ten Thousand Arabic Loanwords Truly Exist In English? International Journal of Interdisciplinary Research and Innovations, 2015.
5. Eremin A.S, Arabic Borrowings in the Lexical-Semantic System of the English Language: Etymological Analysis, RESEARCH RESULT. THEORETICAL AND APPLIED LINGUISTICS, 2020.